

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK QONUNCHILIGIDA
KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABATLARNING
O'ZIGA XOS TUTGAN O'RNI**

Jumaboyev Doniyor Muratboy o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Huquqiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida korporativ huquqiy munosabatlarning fuqarolik qonunchiligidagi huquqiy asoslarini takomillashtirish

Kalit so'zlar: Korporativ huquqiy munosabatlar, yuridik shaxslar, aksiyadorlik jamiyatlari, masuliyati cheklangan jamiyat, ta'sischilar, fuqarolik qonun hujjatlari, huquqiy asoslar

Hozirgi kundagi global sharoitda jahon mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish va mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarining qonuniy asoslarini zamon talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish, bu demokratik, fuqarolik jamiyatini qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan har bir davlatning asosiy qonunchiliklaridan biri hisoblanadi. Chunki fuqarolarning erkinliklari, mulkiy va nomulkiy munosabatlarda ularning huquq va majburiyatlarining aniq qilib belgilab berilishi bu fuqarolik qonunchiligidagi bo'shliqlarni to'ldirishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmasdan qomaydi. Shu nuqtai nazardan jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy munosabatlarida fuqarolik qonunchiligining o'ziga xos o'ri bor. Yuridik shaxs sifatida tashkil etilib korporativ munosabatlarni vujudga keltiradigan Aksiyadorlik jamiyatlari, Masuliyati cheklangan jamiyat kabi birlashmalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida yuridik shaxslar bu o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerakligi belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlari uning usullarida ko'rinadi. Usullar - bu muayyan ijtimoiy munosabatlarda u yoki bu huquqiy vositalar majmuasini qo'llashni, ularning birligini tavsiflaydigan huquqiy ta'sir ko'rsatish yollaridir. Ijtimoiy munosabatlarning har bir ko'inishi, har bir turi uchun subyektlarining huquqiy holati (maqomi), huquqiy munosabatlarni tashkil topish asoslari, shuningdek, ularning mazmunini aniqlash

usullari va huquqiy cheklashlariga qarab o'zining alohida tartibga solish usuli xosdir. Huquqiy tizim ijtimoiy munosabatlarni subyektlarini u yoki bu huquqiy holatlarda qo'yib, ushbu munosabatlarda qo'llaniladigan huquqiy vositalar majmuasining o'ziga xosligini, bu yerdan esa huquqiy tizim tuzilmaviy bo'linmalarining alohida xususiyatlarini aniqlaydi.

Korporativ huquq fuqarolik huquqining tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Bu avvalo, tartibga solinadigan munosabatlarning o'xshashligi, u yoki bu holatda mulkiy xususiyat kasb etishi hamda muqobil - haq baravariga tuzilish xususiyatiga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Lekin fuqarolik huquqi me'yorlari umumiy xarakterga ega bo'lib, subyektidan qat'i nazar mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lsa, korporativ huquq me'yorlari nisbiy xarakterga ega bo'lib, korporatsiya ishtirokchilari va uning xodimlari o'rtasidagi munosabatlarda amal qiladi hamda faqat ular uchun majburiy hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning tashkiliy-huquqiy shakllari va tuzilishini aniqlash, ularning mulkiy munosabatlari tartibga solinishiga fuqarolik- huquqiy tartibga solishning predmeti sifatida qarash lozim.

O'zida korporativ muomalaning umumiy qoidalarini aks ettirgan yuridik shaxslar va ularning ta'xis hujjatlarini tashkil etish to'g'risidagi me'yorlar, yuridik shaxsning organlari va uning vakolatlari, yuridik shaxs faoliyatini litsenziyalash kabi tashkiliy huquqiy xarakterdagi masalalarni hal etishga qaratilgan me'yorlar, fuqarolik-huquqiy tartibga solishning predmeti hisoblangan munosabatlar doirasini kengaytirishga yordam berdi. Ular to'la ravishda korporativ huquq me'yorlarida o'z aksini topdi.

Tuzilmalarning tashkiliy-huquqiy shakli (xo'jalik shirkatlari, jamiyatlar, nodavlat ijtimoiy jamg'armalar va boshqalar) o'z tabiatiga ko'ra fuqarolik huquqiy xarakterga ega bo'lgan mulkiy munosabatlarni tashkil etish va amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lib hisoblanadi. Bu ham korporativ huquqning fuqarolik huquqining tarmog'i ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bunday tasdiqlash huquqiy manbalarning birligi bilan ham asoslanadi. Turli ko'rinishdagi xo'jalik tuzilmalarini tashkil etish va ularning faoliyatini amalga oshirish masalalariga tegishli fuqarolik-huquqiy munosabatlar to'liq tarzda va korporativ-huquqiy munosabatlari qisman O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Huquq me'yorlari o'zining ichki birligi tufayli ijtimoiy munosabatlarni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda bir xillik va maqsadga yo'naltirilgan holda tartibga solishning asosi hisoblangan alohida tarmoqlardan (konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik, oila, mehnat, yer, jinoyat protsessi, fuqarolik protsessi va boshqalar) tashkil topadi. Shu bilan birga huquq tarmoqlari ular tomonidan tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning

xususiyati va ushbu munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning vakolatliligidan kelib chiqib ikki asosiy turkumga bo'linadi: ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy. Korporativ huquq ma'lum darajada ommaviy huquq va asosan xususiy huquq me'yorlaridan tashkil topib, fuqarolik huquqining kichik tarmog'i sifatida xususiy huquq tizimida alohida o'rin egallaydi.

Korporativ tijorat faoliyatining huquqiy tartibga solinishini huquqning muayyan bir sohasiga kiritish juda murakkab masala bo'lib hisoblanadi. Haqiqatdan ham ommaviy yoki xususiy huquq tizimidan qaysi birining me'yorlari korporativ faoliyatni tartibga solishda ustunlikka ega va tegishli korporativ huquq ushbu tizimlardan qaysi birining tuzilishidan o'rin egallaydi. Ushbu masalani hal qilish uchun iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning rivojlangan mexanizmi busiz bo'lmaydigan ommaviy va xususiy huquq o'rtasidagi eng maqbul o'zaro munosabatni aniqlash lozim.

Xulosa qilib aytganda yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday ijtimoiy huquqiy munosabatlar fuqarolik qonunchiligi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Yuridik va jismoniy shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy mulkiy va nomulkiy jihatdan munosabatga kirishishida fuqarolik qonun hujjatlarining ro'li muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023. (lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism) 21.12.1995. (lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism) 29.08.1996. (lex.uz)
4. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'RQ-370-сон 06.05.2014. (lex.uz)
5. "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 310-II-son 06.12.2001. (lex.uz)
6. R.H.Rahmonqulovich, G.S.Saidaxrorovich. "Korporativ huquq" darslik, TDYI. Toshkent: - 2008